

Ilmiy-Tadqiqot Va Innovatsion Faoliyatda Xotin-Qizlarning O'Rni: Yaratilgan Imkoniyat Va Natijalar

Mamasadiqova D.R.¹

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lgan, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini kuchaytirish va iqtisodiy mustaqilligini oshirish, innovatsion faoliyatda o'z o'rnilariga ega bo'lishga va ularga berilayotgan imkoniyatlarni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda xotin-qizlarning innovatsion g'oya yaratish, tadbirkorlik faoliyatida qatnashish va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishdagi o'rni yoritib berilgan. Hozirgi kunda mamlakatimizda ayollarimiz uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ular uchun ish o'rinlarini yaratish va ularning ma'naviy intellektual salohiyatini yanada rivojlantirishda asos bo'ladi.

Kalit so'zlar: Gender tengligi, implementatsiya, ratsionalizatorlik, innovatsion ishlanmalar, tajriba-konstruktorlik, ilmiy faoliyat.

Bugungi kunda mamlakatimiz va jamiyat hayotining barcha jabhalarida, xususan, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda yosh avlodning, jumladan, xotin-qizlarning ma'naviy intellektual salohiyatini yuksaltirish, iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun barcha imkoniyatlar mavjud va buning uchun mustahkam huquqiy asoslar yaratilgan. Xotin-qizlarga jamiyatda o'z o'rnilariga ega bo'lish barobarida ma'nan va jisman yetuk kelajak avlodni tarbiyalashlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida" 1999-yil 10-iyundagi Farmoniga binoan ta'sis etilgan mukofot bu boradagi islohotlar tomon qo'yilgan dadil qadam bo'lgan edi.

Mamlakatimizda ayolga bo'lgan hurmat va e'tibor o'z tarixiy ildizlariga ega. Xotin-qizlarni qadrlash, ularga hurmat va izzatda bo'lish ajdodlarimizga xos qadriyatlar sanaladi. Jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniy: *"Qizlar bilim olishga hammadan ko'proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar"*, deb bejiz qayd etmagan. Darhaqiqat, ushbu dolzarb masalani hal etmasdan millat tarbiyasini, taraqqiyotini tasavvur etish qiyin.

Mashhur faylasuf olim Vilgelm Gumbold e'tirof etganidek, *"Har bir davlatning ma'naviy taraqqiyoti ayolga bo'lgan e'tibori bilan o'lchanadi"*. Rivojlangan davlatlar misolida qaraydigan bo'lsak, gender tengligi ta'minlangani, xotin-qizlar uchun zarur imkoniyatlar yaratilgani, bu milliy an'analar va umumbashariy qadriyatlarga asoslangani taraqqiyotning asosiy sharti ekani ayon bo'ladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Taraqqiyot maqsadlaridagi fan, texnika va innovatsiyalar" to'g'risidagi rezolyutsiyada barcha sohalarida, xususan, ilm-fanda gender tenglikni ta'minlash, butun dunyoda xotin-qizlarning fan, texnika va innovatsiya yutuqlaridan teng va to'laqonli foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratish zarurligi ta'kidlangan². BMT qaroriga ko'ra, 2016-yildan boshlab 11-fevral "Xalqaro ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar kuni" sifatida nishonlanadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ayollarning ilm-fandagi salohiyatiga e'tibor qaratish va qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Mamlakatimizda Xalqaro mehnat tashkilotining **"Bir xil qiymatga ega bo'lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag'batlantirish to'g'risida"**gi hamda **"Mehnat va mashg'ulotlar**

¹ Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

² <https://mininnovation.uz/ru/news/post-372>



sohasidagi kamsitishlar to‘g‘risida”gi konvensiyalari ratifikatsiya qilinishi o‘zbek xotin-qizlari huquqlarini himoya qilishda xalqaro standartlar implementatsiya qilinganini ko‘rsatadi.

2018 yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan **“O‘zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi”**³ tanlovida **olimalar, ixtirochilar, ratsionalizatorlar, dasturchi, tadbirkor ayollar texnik loyihalari, ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion ishlanmalari bilan faol** ishtirok etib kelmoqdalar.

Xotin-qizlarning ilm-fan va ilmiy faoliyatdagi o‘rmini oshirish va ularning innovatsion g‘oyalarini, ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash yuzasidan olib borilayotgan keng qamrovli ishlar natijasida ilmiy, innovatsion, tajriba-konstruktorlik, muhandislik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan xotin-qizlar soni yil sayin ortib bormoqda.

2023-yilda oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarda **6 217 nafar** xotin-qizlar ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borayotgan bo‘lsa, shundan:

tayanch doktoranturada – 3 ming 882 nafar;

doktoranturaga – 276 nafar;

stajyor-tadqiqotchilikda – 229 nafar;

mustaqil izlanuvchilikda – 1 ming 830 nafar xotin-qiz ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borganini kuzatish mumkin.

2023-yildan boshlab oliy ta‘lim muassasasi va ilmiy tashkilotlarga xotin-qizlar uchun umumiy kvota doirasida qo‘shimcha 300 ta maqsadli kvota ajratib kelinayotgani ham ilmiy-tadqiqot faoliyatida xotin-qizlar ulushining ortishiga sabab bo‘lmoqda. Davlat oliy ta‘lim muassasalari magistratura yo‘nalishida tahsil olayotgan qizlarning to‘lov-kontrakt mablag‘lari davlat byudjetidan qoplanayotgani ham ilm-fan sohasida gender tenglik ta‘minlamoqda.

Bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalaridagi jami ilmiy salohiyatli kadrlarning 30,0 foizini, jami professor-o‘qituvchilarning 10,1 foizini ayollar tashkil etmoqda. Shundan, 2 035 nafar fan doktor (DcS)laridan 437 nafari (21,5 foiz)ni, 7 880 nafar fan nomzodi (PhD)larining esa 2 541 nafari (32,2 foiz)ni ayollar tashkil etadi.

Respublikamizda xotin-qizlarni ilm-fanga keng jalb qilish, fan-ta‘lim va iqtisodiyotning turli tarmoq hamda sohalarida ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan xotin-qizlarning yangi g‘oya va ishlanmalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish maqsadida ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida 2020-yildan boshlab **“Olima ayollar grantlari”** tashabbuskor amaliy va innovatsion loyihalar tanlovi muntazam e‘lon qilib borilmoqda. Birinchi marta e‘lon qilingan **“Olima ayollar grantlari”** tashabbuskor amaliy va innovatsion loyihalar tanlovi (22-tur)ga jami 111ta hujjat taqdim etilgan.

Kelib tushgan loyihalarning dastlabki texnik ekspertiza natijalariga ko‘ra umumiy qiymati 30,3 mlrd so‘mlik 44 ta, shundan 15,1 mlrd so‘mlik 26 ta amaliy, 15,1 mlrd so‘mlik 18 ta innovatsion loyiha tanlab olinib, tegishli Ilmiy-texnik kengashlar muhokamasiga kiritilgan. Kollegial organ qaroriga ko‘ra umumiy qiymati 8,5 mlrd so‘mlik 8 ta amaliy, 4,7, mlrd so‘mlik 8 ta innovatsion loyiha 2021-yildan boshlab moliyalashtirilgan. Hozirgi kunda yakunlangan ilmiy loyihalarning ilmiy natijalarini amaliyotga joriy etish va tijoratlashtirish bo‘yicha tegishli ishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida 2017-2020 yillarda moliyalashtirilgan 1 021 ta ilmiy loyihadan 204 tasi (52 ta fundamental, 152 ta amaliy) olima ayollar rahbarligi ostida bajarilgan. Ushbu loyihalar doirasida Scopus/Web of Science xalqaro indeksatsiyalangan bazalardagi ilmiy jurnallarda 546 ta, mahalliy jurnallarda 2 044 ta ilmiy maqola nashr ettirilgan, 74 ta intellektual mulk bo‘yicha patentlar ro‘yxatga olingan. Bu ko‘rsatkichlar ilm-fanda olima ayollarning o‘rni yuqoriligidan dalolat beradi.

³ <https://www.uzbekembassy.in/ozbekiston-ayollarining-100-ta-eng-yaxshi-innovatsion-loyihasi/?lang=uz>



2023-yilda ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida umumiy qiymati 993,64 mln so‘m bo‘lgan 604 ta ilmiy loyiha amalga oshirilgan bo‘lsa, shundan umumiy qiymati 249,2 mln so‘m bo‘lgan 154 ta ilmiy loyiha xotin-qizlar rahbarligida bajarilgan. Bu ko‘rsatkichni tadqiqot turlari kesimida olib qarasaq, quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

umumiy miqdori 174,6 mln so‘m bo‘lgan 105 ta amaliy tadqiqot;

umumiy miqdori 22,7 mln so‘m bo‘lgan 23 ta innovatsion tadqiqot;

umumiy miqdori 51,9 mln so‘m bo‘lgan 26 ta fundamental tadqiqot.

2023-yilda respublikamizda oliy ta‘lim muassasalarining umumiy soni 131 ta bo‘lib, shundan 25 tasini xorijiy oliy ta‘lim muassasalari va ularning filiallari tashkil qilgan.

2018-yilda oliy ta‘lim muassasalarining ilmiy-innovatsion faoliyatiga 7 nafar ayollar rahbarlik lavozimida faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib ularning soni 18 nafarga yetkazildi. Oliy ta‘limdan keying ta‘limni muvofiqlashtiruvchi yagona elektron tizimda (*phd.mininnovation.uz*) ro‘yxatdan o‘tgan ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan xotin-qizlar jami 2 412 nafarni tashkil etib, shundan, tayanch doktoranturada 1 185 nafar, doktoranturada 80 nafar, mustaqil izlanuvchilikda (PhD) 935 nafar, mustaqil izlanuvchilikda (DSc) 95 nafar hamda stajyor-tadqiqotchilikda 117 nafar izlanuvchi ayollar haqidagi ma‘lumotlar jamlandi.

Ma‘lumot uchun, 2023-yilda yagona elektron tizimida (phd.mininnovation.uz) ro‘yxatdan o‘tgan ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jami izlanuvchilar soni 6 068 nafarni tashkil etib, shundan, tayanch doktoranturada 2 976 nafar, doktoranturada 285 nafar, mustaqil izlanuvchilikda (PhD) 2 209 nafar, mustaqil izlanuvchilikda (DSc) 259 nafar hamda stajyor-tadqiqotchilikda 339 nafar izlanuvchilar haqidagi ma‘lumot jamlangan. Bunda ayollar ulushi 39,7 foizni tashkil etgan.

Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan 2018-yilda yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalaridan 6 nafar yosh olimalarni qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga (Rossiya, AQSH, Avstriya, Buyuk Britaniya) yuborishga 239,02 mln so‘m, 2019-yilda 50 nafar yosh olimalarni qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga (Rossiya, Belarus, Niderlandiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Avstriya) yuborishga 1 412,77 mln so‘m mablag‘ ajratilgan⁴. Bu miqdor yildan-yilga o‘sib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning ta‘lim sohasi va ilm-fandagi o‘rnini kengaytirish, kelajakda ularni ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga yanada keng jalb qilish, xalqaro miqyosda faolligini rag‘batlantirish, muhandislik, axborot kommunikatsion texnologiyalar sohasidagi ulushini oshirish masalalariga davlat tomonidan alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Olima ayollarimiz safi yildan-yilga kengayib borayotgani, ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan dasturiy ishlanmalari, innovatsion g‘oyalari, ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyati ta‘lim va ilm-fan sohasi rivojiga salmoqli hissa qo‘shayotganligi mamlakatimizda xotin-qizlarga berilayotgan yuksak e‘tibor, yaratilgan shart-sharoit hamda keng imkoniyatlar samarasidir. Bu yo‘nalishda ishlarni yanada jonlantirish va davom ettirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “*Bir narsani bilishimiz kerak: ilmsiz, innovatsiyasiz oldimizga qo‘ygan maqsadlarga hech qachon erisha olmaymiz*”, degan fikrlari dasturul amal bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Iqtiboslar:

1. Sh.M.Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi asosiy ma‘lumotlar. 2020 yil 3 dekabr.
2. <https://mininnovation.uz/ru/news/post-372>
3. <https://www.uzbekembassy.in/uzbekiston-ayollarining-100-ta-eng-yaxshi-innovatsion-loyihasi/?lang=uz>.

⁴ Миллий маъруза 2017-2021 йй. - Center for Scientific and Technical Information - страница 166 | PDF онлайн | PubHTML5



4. Миллий маъруза 2017-2021 йй. - Center for Scientific and Technical Information - страница 166
| PDF онлайн | PubHTML5.

